




O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

**2024- YIL YANVAR-SENTABR**

*(dastlabki ma’lumotlar)*

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YAIM) dinamikasi<sup>1</sup>, yanvar-sentabr



2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi YAIMi hajmi joriy narxlarda **1 015 331,8** mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda **6,6** % ga o'sdi. YAIM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan **113,1** % ni tashkil etdi.

YAIMning deflyator indeksi dinamikasi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da



✓ **YAIM fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati)** doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAIM (real YAIM)ni joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YAIMiga nisbati orqali hisoblanadi.

✓ **Yalpi ichki mahsulot (YAIM)** iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

<sup>1</sup>Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2020-2024- yillarning yanvar-sentabr oylari uchun kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olgan holda aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan.

## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIM dinamikasi,


yanvar-sentabr, joriy narxlarda, trln so'm

Yillar

2020	253,9	187,7	31,6
2021	314,7	229,7	37,8
2022	369,8	289,5	48,5
2023	429,3	372,7	40,6
2024	511,2	457,9	46,2
	Tovarlar ishlab chiqarish	Xizmatlar ko'rsatish	Mahsulotlarga sof soliqlar

## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIM dinamikasi,

yanvar-sentabr, mlrd AQSH dollari




**Ma'lumot uchun:** 2024- yilning yanvar-sentabrida AQSH dollarining so'mga nisbatan o'rtacha rasmiy kursi **12 594,9** so'm, 2023- yilning yanvar-sentabrida **11 556,2** so'm, 2022- yilning yanvar-sentabrida **11 009,3** so'm, 2021- yilning yanvar-sentabrida **10 565,5** so'm, 2020- yilning yanvar-sentabrida **9 940,9** so'mga teng bo'lgan.

Joriy davrda o'rtacha almashuv kursi bo'yicha hisoblangan nominal YAIM hajmi **80 614,8** mln AQSH dollarini tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-sentabrda YAIM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i **0,7 f.p.**, sanoat tarmog‘i – **1,6 f.p.**, qurilish tarmog‘i – **0,7 f.p.** va xizmat ko‘rsatish tarmog‘i – **3,3 f.p.** ijobiy hissa qo‘shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YAIM **0,3 f.p.** ga ko‘paydi.

### YAIM o‘shishida tarmoqlarning hissasi dinamikasi,

yanvar-sentabr, jamiga nisbatan % da




Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining **95,4 %** ini tashkil etdi va **6,6 %** ga o‘ydi (YAIM mutlaq o‘shishiga ta‘siri **6,3** foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi **4,6 %** ni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda **6,6 %** ga o‘ydi (YAIM mutlaq o‘shishiga ta‘siri – **0,3 f.p.**).


2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, YAIM tarkibida katta bo‘lmagan o‘zgarishlar kuzatildi. YAIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi **46,5 %** dan **47,2 %** ga, sanoatning ulushi **24,7 %** dan **26,2 %** ga oshdi.

Shu bilan birga, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi **21,2 %** dan **19,4 %** ga hamda qurilish tarmog‘ining ulushi **7,6 %** dan **7,2 %** ga kamaydi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIM tarkibi, yanvar-sentabr, jamiga nisbatan % da**




### Aholi jon boshiga YAIM, yanvar-sentabr, joriy narxlarda, ming so'm



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining o'rtacha soni 2020- yilning yanvar-sentabrda **34 144,2** ming kishi, 2021- yilning yanvar-sentabrda **34 819,1** ming kishi, 2022- yilning yanvar-sentabrda **35 546,2** ming kishi, 2023- yilning yanvar-sentabrda **36 312,4** ming kishi va 2024- yilning yanvar-sentabrda **37 077,6** ming kishini tashkil etgan.

2024- yilning yanvar-sentabrda aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda **27 384,0** ming so'mni (yoki **2 174,2** AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etdi.


### Aholi jon boshiga YAIMning o'sish (kamayish) sur'atlari, yanvar-sentabr, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da



Yuqorida keltirilgan diagrammadan ko'rinib turganidek, 2024- yilning yanvar-sentabrda aholi jon boshiga YAIM hajmining real o'sishi 2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **4,4 %** ni, 2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan esa **19,7 %** ni tashkil etdi.

☑ **Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.**

## Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining yalpi qoʻshilgan qiymati, yanvar-sentabr




2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, **qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 3,1 %** (2023- yilning yanvar-sentabrida – **4,0 %**, 2022- yilning yanvar-sentabrida – **3,6 %**, 2021- yilning yanvar-sentabrida – **4,0 %**, 2020- yilning yanvar-sentabrida – **2,6 %**) darajasida ijobiy oʻsish qayd etildi.

✓ **Maʼlumot uchun:** 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **323 878,0 mlrd soʻmni** tashkil etdi. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining **97,5 %** i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar, **1,9 %** i – oʻrmon xoʻjaligi, **0,6 %** i – baliqchilik xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keldi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, ushbu tarmoqdagi ijobiy oʻsish surʻatlari dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlarning **3,1 %** ga, oʻrmon xoʻjaligi – **2,9 %** ga va baliqchilik xoʻjaligi – **1,3 %** ga oʻsishi bilan bogʻliq.

## Sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati, yanvar-sentabr



■ Hajmi, mlrd so'm    ● O'sish (kamayish) sur'ati, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, **sanoat tarmog'i** qo'shilgan qiymatida **7,0 %** ga o'sish kuzatilgan.

Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati **1,3 %** ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning **8,2 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'ining **4,5 %** ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'ining **5,9 %** ga ijobiy o'sishi hisobiga ta'minlandi.



### Sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati,

yanvar-sentabr



Yillar


2020

2021

2022

2023

2024



O'sish (kamayish) sur'ati, % da

Hajmi, mlrd so'm

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat

Sanoatning boshqa tarmoqlari


### Sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi,

yanvar-sentabr, jamiga nisbatan % da


Tog'-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash

Ishlab chiqaradigan  
(qayta ishlash) sanoat

Sanoatning  
boshqa tarmoqlari



## Qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati, yanvar-sentabr




2024-yilning yanvar-sentabrda 2023-yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda **qurilish ishlari** hajmi **9,0 %** ga o'sdi.

Jumladan, o'sish sur'atlari bino va inshootlar qurilishida **108,6 %** ni, fuqarolik obyektlari qurilishida **112,5 %** ni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida **106,4 %** ni tashkil etdi.


☑ **Ma'lumot uchun:** 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlari hajmi **167 101,2 mlrd so'mni** tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmida yirik qurilish tashkilotlarining ulushi **24,4 %**, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi **48,1 %**, jismoniy shaxslarning ulushi **27,5 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi, yanvar-sentabr, mlrd so'm**


**Yillar Binolar va inshootlar qurish**




**Yillar Fuqarolik obyektlarini qurish**



**Yillar Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari**




**Qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, yanvar-sentabr, jamiga nisbatan % da**




- Binolar va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati,**  
*yanvar-sentabr*




2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, **xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati** hajmi **457 899,8** mlrd so‘mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **7,5 %** ga o‘tdi. Shu jumladan, savdo xizmatlari **11,1 %** ga, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar **10,6 %** ga, tashish va saqlash xizmatlari **8,7 %** ga, axborot va aloqa xizmatlari **22,3 %** ga, boshqa xizmatlar **4,5 %** ga o‘tdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi,**  
*yanvar-sentabr, jamiga nisbatan % da*




## Savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati, yanvar-sentabr




■ Hajmi, mlrd so'm    ● O'sish sur'ati, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **savdo** tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulushi chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ga to'g'ri keldi va **57,1 %** ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ning ulushi **30,5 %** ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta'mirlashning ulushi **12,4 %** ni tashkil qildi.

## Savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, yanvar-sentabr, jamiga nisbatan % da




**Tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati,**  
yanvar-sentabr




2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, **tashish va saqlash** tarmog'ining O'zbekiston Respublikasi YAIMidagi ulushi **5,3 %** ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida eng ko'p ulushi avtomobil transportiga to'g'ri keldi va **53,0 %** ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq umumiy qo'shilgan qiymatida quvur transportining ulushi **14,7 %**, temir yo'l transportining ulushi **9,1 %**, yordamchi transport faoliyatining ulushi **15,0 %**, havo transportining ulushi **8,2 %** ni tashkil etdi.

**Tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi,**  
yanvar-sentabr, jamiga nisbatan % da




**Axborot va aloqa tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati,**  
yanvar-sentabr



■ Hajmi, mlrd so'm    ● O'sish sur'ati, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **axborot va aloqa** tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **2,6 %** ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida asosiy ulush aloqa xizmatlariga (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i va boshqalarga) to'g'ri keldi va **37,1 %** ni tashkil etdi. Tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning qolgan **62,9** foizi axborot va aloqaning boshqa tarmoqlari (nashriyot faoliyati, kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat, dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat, teleko'rsatuv va radio-eshittirish v.b.) hissasiga to'g'ri keldi.

**Axborot va aloqa tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi,**  
yanvar-sentabr, jamiga nisbatan % da



● Aloqa xizmatlari  
● Boshqa xizmatlar


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining** mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi.

Tarmoqda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmining **40,5** foizi aloqa xizmatlari, **40,9** foizi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar, **9,6** foizi ma’lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, Web-portallar, **5,5** foizi dasturiy ta’minotni chiqarish, qolgan **3,5** foizi kompyuterlar va aloqa uskunalarni ta’mirlash xizmatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

### AKT xizmatlarining yalpi qo‘shilgan qiymati,

yanvar-sentabr

Yillar



Hajmi, mlrd so‘m


Yillar



YAIMdagi ulushi, YAQQga nisbatan % da


### 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat

521 233,0 mlrd so‘m



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Tarkibi, jamiga nisbatan % da





YAIMda kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi, YAQQga nisbatan % da

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlari bo‘yicha **kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari** tomonidan **521 233,0** mlrd so‘m miqdorida qo‘shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo‘shilgan qiymatning **53,8 %** i yaratilgan. Shundan **34,9 %** i qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, **12,2 %** i sanoat, **10,5 %** i qurilish tarmoqlari va **42,4 %** i xizmatlar sohasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **96,7 %**, qurilishda **78,0 %**, xizmatlar sohasida **48,3 %** va sanoatda **25,1 %** ni tashkil etdi.




## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida kuzatilmaydigan (norasmiy va yashirin) iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi 357 507,6 mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 35,2 % ni tashkil etdi.

Shundan norasmiy iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi 274 028,6 mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 27,0 % ni tashkil etdi. Yashirin iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi esa 83 479,1 mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 8,2 % ni tashkil etdi.

## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kuzatilmaydigan iqtisodiyotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, jamiga nisbatan % da



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmining tarmoqlar bo'yicha tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 67,7 % ni, xizmatlar sohasi 39,0 % ni, qurilish 38,8 % ni, sanoat 9,7 % ni tashkil etgan.

- ✓ **Kuzatilmaydigan iqtisodiyot** – doimiy statistika kuzatuvlarida to'liq yoki qisman qamrab olinmagan, shuningdek, statistika ko'rsatkichlarida aks ettirishda bilvosita usullar orqali baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlari.
- ✓ **Norasmiy iqtisodiyot** – uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.
- ✓ **Yashirin iqtisodiyot** – qonun bilan man etilmagan, ammo soliqqa tortilmaslik va qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaslik maqsadida davlat organlaridan ataylab berkitilgan iqtisodiy faoliyat.